



**CLT (COMMUNICATIVE LANGUAGE TEACHING)  
YONDASHUVIGA KIRUVCHI INTERAKTIV  
METODLARNING AFZALLIGI VA KAMCHILIKLARI**

*Sh.I. Musayeva*

*Jamoat xavfsizligi universiteti Tillarni o'rganish kafedrasi o'qituvchisi*

*Annotatsiya. Harbiy ta'lim muassasalarida chet til o'qitishdan ko'zlangan amaliy maqsadda kursantlarning bo'lg'usi kasblariga oid mutaxassislik mavzularida muloqot qila olish, axborot almashish malakasinigina shakllantirish emas, balki o'zga til egasining turmush tarzi, madaniyatidan ham xabardor "shaxs" tayyorlash talab etilmoqda. Kursantlarni o'quv jarayonida faollashtirish va ularda chet tildagi nutqiy muloqotga nisbatan motivatsiya hosil qilishda zamonaviy metodika didaktik o'yinlar, muammoli o'qitish, modulli o'qitish texnologiyalaridan foydalanishni tavsiya qiladi.*

Biz bilamizki, bugungi kunda ingliz tili xalqaro til sifatida fan va texnologiya tiliga aylanib ulgurdi. Deyarli barcha mamlakatlarda ingliz tili o'quv jarayoniga birinchi til yoki ikkinchi til (xorijiy til) sifatida tatbiq etilgan. Bizning mamlakatimizda ham ingliz tili xorijiy til sifatida o'quv jarayoniga joriy etilgan. Xo'sh, xorijiy tilni kursantlarga o'rgatishda hamda ularda muloqot kompetensiyasini rivojlantirish uchun biz avvalo nimalarga e'tibor qaratishimiz kerak. J.C.Richards va T.S.Rojerslarning fikricha "haqiqiy muloqotni til o'rganishning maqsadiga aylantirish, o'rganuvchilarga aniqlik va ravonlikni rivojlantirish uchun imkoniyatlar yaratish, o'rganuvchidagi xatolar undagi kommunikativ kompetensiyani rivojlanayotganini ko'rsatadi, turli ko'nikmalarni ya'ni gapirish, o'qish, tinglash va yozish kabilarni birgalikda qo'llash kerak, chunki ular haqiqiy hayotda doim birgalikda keladi"[1] deb ta'kidlab o'tadi. Biz ham ushbu fikrni yoqlagan holda kursantlarda 4 til ko'nikmalarini birgalikda qo'llashga va rivojlantirishga alohida e'tibor qaratishimiz darkor. Kursantlarda

kommunikativlikni rivojlantirish uchun CLT (Communicative language teaching) yondashuvi asosidagi metodlarni va interaktiv metodlarni dars jarayoniga tatbiq etishimiz, ulardagi kommunikativ jarayondagi muommalarni oldini olishga tayyorlaydi. CLT yondashuvini dars jarayonida qo'llaganda kursantlarda madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini rivojlantirish uchun qay darajada yordam berishi mumkin. Avvalo, CLT yondashuvi haqida va uning turlari haqida qisqacha to'xtalib o'tsak.

Kommunikativ tilni o'rgatish (KTO') yoki kommunikativ yondashuv (KYo) – [til o'qitishga](#) yondashuv [bo'lib](#), u o'zaro [ta'sirni](#) o'rganish vositasi va yakuniy maqsadi sifatida talqin qilinadi. Ushbu yondashuvda til o'rganuvchilar sheriklar bilan shaxsiy tajribalari haqida suhbatlashadilar va o'qituvchilar barcha turdagi vaziyatlarda til ko'nikmalarini rivojlantirish uchun an'anaviy grammatika doirasidan tashqari mavzularni o'rgatishadi. Ushbu usul, shuningdek, o'quvchilarni o'zlarining shaxsiy tajribalarini til o'rganish muhitiga qo'shishga va maqsadli tilni o'rganishdan tashqari, o'rganish tajribasiga e'tibor berishga undaydi[2]. CLT yondashuviga ko'ra, til ta'limining maqsadi – maqsadli tilda muloqot qilish qobiliyati[3]. Bundan tashqari, CLT yondashuvi, shuningdek, o'qituvchini o'qituvchi vazifasida emas, balki yordamchi sifatida belgilaydi hamda ushbu yondashuv uslubiy bo'lmagan tizim bo'lib, maqsadli tilni o'rgatish uchun darslik turkumidan foydalanmaydi, lekin o'qish va yozish kompetensiyasiga qaraganda og'zaki nutq qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan.

Avvallari til o'rgatishga kognitiv masala sifatida qaralgan bo'lsa, bu yondashuv asosan yodlashga asoslangan. Keyinchalik u ijtimoiy-kognitiv xususiyatga ega deb hisoblanib: tilni ijtimoiy o'zaro ta'sir jarayoni orqali o'rganish mumkin degan xulosaga kelingan. Biroq, bugungi kunda har qanday tilni o'rgatishning asosiy usuli bu kommunikativ tilni o'qitish (KTO') yondashuvi deb qaralmoqda.

Ushbu yondashuvning tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, u 1960-yillarda N.Homsky tomonidan talqin qilingan bo'lsa, 1966-yilda tilshunos va antropolog D.Hymes ushbu yondashuvni kengroq o'rganadi kommunikativ kompetensiya

konsepsiyasini ishlab chiqadi, bu bilan u tilni “bilish” nimani anglatishini qayta aniqladi. “So‘zlovchi til elementlari strukturasi yaxshi bilgan holda, nutqda keng va o‘rinli foydalana olishni ham bilishi kerak” – deb ta’kidlab o‘tadi D.Hymes[4]. Hymesning xulosasiga ko‘ra “grammatika qoidalari bo‘lmagan holda tildan foydalanish qoidalari mavjud emas va foydasiz”[5]. Ammo, Hymes ham kommunikativ kompetensiyani aniq shakllantirmadi, Maykl Canale esa konsepsiyani til o‘qitish bilan bog‘ladi. Canale va Sveyn (1980) kommunikativ kompetensiyani 3 ta tarkibiy qism bo‘yicha aniqladi: grammatik, sotsiolingvistik va strategik kompetensiyalar.

1983-yilda Canale ushbu uchlikka 4-kompetensiya – diskurs (nutq) kompetensiyasini qo‘shadi. Asta-sekinlik bilan Yevropa kengashida tilni kommunikativ asosda o‘qitish samarali ekanligi va buning uchun Yevropa ta’lim jarayonini qondiradigan o‘quv dasturi ishlab chiqishni maqsad qilib qo‘ydi.

Dastur tadqiqotchilari ichida ingliz tilshunosi D.A.Uilkins ham bor edi. U an’anaviy grammatika va so‘z boyligi toifalaridan emas, balki “tushunchalar” va “funksiyalar”dan ko‘proq foydalangan holda tilni aniqladi[6].

Yangi o‘quv dasturi tilni grammatika va sintaksis bilan yetarli darajada tushuntirib bo‘lmaydi degan fikrni olg‘a surdi, ammo uning o‘rniga ular real (haqiqiy) muloqotga tayanishni ma’qulladi.

CLT yondashuvidan foydalanayotgan o‘qituvchilari sinf mashg‘ulotlarini maqsadli tilda muloqot kompetensiyasini rivojlantirish uchun o‘zlari ishongan narsalarga qarab tanlashlari mumkin. U faoliyat darajasiga qarab farq qiladi hamda hamkorlik, ravonlik va qulaylikni targ‘ib qiladi[7].

Quyidagilar CLT yondashuvining asosiy metodlari hisoblanadi: role play, interviews, group work, information gap, opinion sharing, scavenger hunt, jigsaw, task completion activities, information gathering, information transfer va boshqalar.

Quyida biz CLT yondashuviga kiruvchi interaktiv metodlardan foydalanganda madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini rivojlantirishga ko‘mak beruvchi tomonlarini tahlil qilib chiqamiz (2.3.1.-jadvalga qarang).

**2.3.1.-jadval**

**CLT (Communicative Language Teaching) yondashuviga kiruvchi  
interaktiv metodlar**

<b>№</b>	<b>Interaktiv metodning nomi</b>	<b>Maqsadi</b>	<b>Afzalligi</b>	<b>Kamchiligi</b>
1.	role play ( <a href="#">Howard Barrows</a> )	Rolli o'yin, odatda, juftlikda yoki kichik guruhda bajariladigan og'zaki faoliyat bo'lib, uning asosiy maqsadi muayyan sharoitda kursantlarning kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirishdan iborat. Kursantlar o'zlarini turli xil ijtimoiy kontekstlarda va turli xil rollarga ega ko'rsatishadi. Rol o'ynashda o'qituvchi o'quvchilarga	-butun guruh ishtirok etadi; -o'qituvchi rahbarlik qiladi; -xavotirni kamaytiradi; guruhlar bir xillik yoki xilma-xillik uchun tuzilishi mumkin; -o'qituvchi maslahatchi/jarayon menejeri sifatida turadi; -umumiy shaxslararo muloqot, muzokaralar olib borish, jamoada ishlash ko'nikmalarini rag'batlantiradi; -ta'lim darajasida	-o'qituvchi guruhlarining guruh loyihalarini saqlash uchun aylanishi kerak; -yuqori darajadagi kognitiv domen munozara guruhlar uchun samarali; -ko'proq yuqori darajadagi o'rganish uchun foydali; -baholash qiyin bo'lishi; -materialni to'g'ri va malakali o'rgatishlariga ishonch hosil qilishlari kerak;

		ularning kimligi va nimani his qilishlari, o'ylashlari va boshqalar haqida ma'lumot berishni nazorat qiladi.	katta farq bo'lganda foydalidir; -mahoratni o'zlashtirganlar boshqalarga murabbiylik qiladi; -vazifaning tarkibiy qismlarini o'zlashtirish uchun foydalanish mumkin; -sinfning sun'iyligini kamaytiradi, suhbatlashish uchun sabab beradi va kursantga boshqa kursantlar bilan mazmunli gapirishga imkon beradi; -kursant uchun tanlash erkinligi elementi mavjud;	
--	--	--	--	--

			-tez qaror qabul qilish bilan bir qatorda tanqidiy fikrlashni ham rivojlantiradi;	
2.	interviews	Suhbat–bu juftlikda amalga oshiriladigan og‘zaki mashg‘ulot bo‘lib, uning asosiy maqsadi til o‘qitishda kursantlarning o‘zaro munosabatlarini rivojlantirishdir. Rubrikani oldindan tanlaydilar yoki o‘qituvchi uni taqdim etadi, kursantlar qaysi yo‘ldan borishlari va qanday savollar berishlari mumkinligini oldindan	-umumiy shaxslararo muloqot, muzokaralar olib borish, juftlikda ishlash ko‘nikmalarini rag‘batlantiradi; -kursant uchun tanlash erkinligi elementi mavjud; -tez qaror qabul qilish bilan bir qatorda tanqidiy fikrlashni ham rivojlantiradi; -sinfnig sun‘iyligini kamaytiradi, suhbatlashish uchun sabab beradi va kursantga boshqa kursantlar bilan	-guruhlar bir xillik yoki xilma-xillik uchun tuzilishida qiyinchilik mavjud; -asosan juftlikda yoki kichik guruhda ishlash imkoniyati; -xato qilishdan qo‘rqish; -nutq qobiliyatiga ishonch yo‘qligi va o‘z nuqtayi nazarini ifodalash uchun so‘z boyligi yetarli emasligini his qilish; -dominant sherigi mavjudligi, bu esa o‘z fikrlarini erkin ifoda etishda qiyinchilik tug‘diradi;

		bilishadi, ammo intervyu savollari har bir kursant tomonidan alohida tayyorlanishi kerak. Suhbatni o'tkazishda o'quvchilar nutq qobiliyatini mashq qilish va muloqot qilish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Faoliyatdan so'ng tadqiqot butun guruhga taqdim etiladi.	mazmunli gapirishga imkon beradi; -baholashga qulay; -o'z fikrini mustaqil bayon etish; -bir-birini tinglash, savol berish va unga munosib javob qaytarish qobiliyatini rivojlantiradi.	
3	group work	Guruh ishi – bu hamkorlikdagi faoliyat bo'lib, uning maqsadi kattaroq guruh sharoitida til o'qitishda muloqotni rivojlantirishdir.	-ba'zi uyatchan kursantlarning boshqalar oldida gapirishni o'zlarini qulay his qilmasliklarini ham kamaytiradi; -guruh qancha kam bo'lsa, zahiradagi	-barcha ko'zlar o'z ustida bo'lgan butun guruhga ta'sir qilish ishtirokchilarni sahnada qo'rquvga solidi; -kursant o'zini yo'qotishdan yoki shunchaki tinglovchilar

			<p>kursantlar uchun munozaralarda qatnashish imkoniyati ko'proq bo'ladi; -teskari aloqa har bir kursantni ko'rsatmalarga amal qilishga undaydi va muhokama natijalarini ochib beradi; -o'z fikrini mustaqil bayon etish;</p>	<p>oldida xato qilishdan asabiylashishi mumkin; -nutq qobiliyatiga ishonch yo'qligi va o'z nuqtayi nazarini ifodalash uchun so'z boyligi yetarli emasligini his qilish; -dominant kursantlarning mavjudligi, bu esa o'z fikrlarini erkin ifoda etishda qiyinchilik tug'dir adi; -kursantlarning ona tilidan foydalanishi; -vaqtni belgilanganligi;</p>
4	information gap(Byrne & Rixon)	<p><a href="#">Axborot bo'shlig'i</a>—bu hamkorlikdagi faoliyat bo'lib, uning maqsadi kursantlar uchun</p>	<p>-o'z fikrini mustaqil bayon etish; -bir-birini tinglash, savol berish va unga</p>	<p>-vaqtni belgilanganligi; -mavzu haqidagi ma'lumotning yetishmasligi;</p>



	<p>ilgari ularga noma'lum bo'lgan ma'lumotlarni til o'qitishni samarali qilishdir. Bu yerda maqsad yangi ma'lumotni topish yoki shunchaki ma'lumot almashishdir. Har bir ishtirokchi keyingi bir xil asl nusxadagi ma'lumotlarning turli qismiga ega. Har bir kursant boshqa tomonga kerakli ma'lumotlarni taqdim etsa, vazifa bajarilishi mumkin. Faoliyat ma'lumot to'plash va muammolarni hal qilish kabi</p>	<p>munosib javob qaytarish qobiliyatini rivojlantiradi; -ma'lumotni tez va oson o'zlashtirish; -ma'lumotni to'plash orqali muammoni hal etish; -qaytuvchi aloqa har bir kursantni ko'rsatmalarga amal qilishga undaydi va muhokama natijalarini ochib beradi; -umumiy shaxslararo muloqot, muzokaralar olib borish, juftlikda ishlash ko'nikmalarini rag'batlantiradi; kursantga ma'lumot ustida</p>	<p>-o'qituvchidan tarqatma materiallar tayyorlash uchun ko'p vaqt talab qilinadi; - o'qituvchilar o'z kursantlari ushbu faoliyat uchun samarali muloqot qilishga tayyor bo'lishlari kerakligini e'tibordan chetda qoldirmasliklari kerak. -agar kursantlar topshirilgan vazifaga yaxshi tayyorlanmagan bo'lsa, ular samarali muloqot qila olmaydi.</p>
--	--	--	--

		maqsadlarga erishadi. Ushbu faoliyat har bir ishtirokchiga maqsadli tilda keng gapirish imkoniyatini berishda samarali hisoblanadi.	ishlashga yengillik yaratadi; -til o'qitishdagi noma'lum ma'lumotlar haqida muloqot qilish qobiliyatini yaxshilaydi	
5	opinion sharing	Fikr almashish– mazmunga asoslangan faoliyat bo'lib, uning maqsadi kursantlarning suhbatlashish ko'nikmalariga jalb qilish, shu bilan birga, ular qiziqtirgan narsa haqida gapirishdir. Faoliyat ma'lumot almashish va muammolarni hal qilish kabi maqsadlarga erishadi. Ushbu	-til muvaffaqiyatli o'rganiladi; -kursantlar haqiqiy muloqotga jalb qilinganda, ular tilni o'zlashtirish uchun o'zlarining tabiiy strategiyalaridan foydalanishlari mumkin va bu ularni tildan tabiiy ravishda foydalanishni o'rganishga undaydi.	-asosiy e'tibor tilning aniqligiga emas, balki ravonlikka qaratilgan -kursantlarning xatolarini bartaraf etishga ko'p e'tibor bermaydi; -ularning xatolari tuzatilmaganligi sababli, kursantlar noto'g'ri grammatik jummalarni yaratishi mumkin; -hurmat bu faoliyatning kalitidir. Agar kursant o'z fikrini

		faoliyat har bir ishtirokchiga maqsadli tilda keng gapirish imkoniyatini berishda samarali hisoblanadi.		o'qituvchi yoki tengdoshlari tomonidan hurmat qilinishini his qilmasa, u holda ular o'zlarini erkin his qilishmaydi va ular ushbu faoliyatdan kommunikativ foyda olmaydilar.
6	scavenger hunt (Scavenger military culture hunt)	Chiqindilarningo vi–bu kursantlar o'rtasidagi ochiq muloqotga yordam beradigan aralash faoliyat. Ushbu metod kursantlar o'rtasidagi ochiq o'zaro muloqotni rivojlantirishga asoslangan faoliyat hisoblanadi. Angliya madaniyatini aks ettiruvchi harbiy urf-odat va	-bir vaqtning o'zida bir nechta kursant bilan muloqot qila oladi; -bir-birlari haqida ko'proq ma'lumotga ega bo'lgach va o'zlari haqida baham ko'rgandan so'ng, kursantlar boshqa kommunikativ mashg'ulotlar davomida suhbatlashish va	-ta'lim va o'qitish muhitining konteksti hisobga olinmaydi; -sinf xonasida ko'p shovqin kelib chiqishi mumkin; -ko'p vaqt talab qiladi; -dominant kursantlarning mavjudligi, bu esa o'z fikrlarini erkin ifoda etishda qiyinchilik tug'diradi;

	<p>an'analar, madaniy joylar, harbiy sarkardalar kabi qiziqarli va aniq faktlarni oson va qulay usulda o'rganish bilan birga madaniyatlararo muloqot kompetensiyalari ni rivojlantiradilar. Undan samaraliroq foydalanishga moslasha olishlari uchun tilni shaxsiylashtirish ga qaratilgan.</p>	<p>baham ko'rishda o'zlarini qulay his qilishadi; -bu faoliyat boshqa ba'zilar kabi tuzilgan emasligi sababli, o'qituvchilar uchun tuzilmani qo'shish muhimdir; -kursantlar mahalliy til vakillari muloqot vaziyatini to'g'ri baholashni; -suhbat jarayonida suhbatdoshining fikrini to'g'ri anglashni; - madaniyatlar o'rtasidagi o'xshashlik va farqlarni til o'rganish bilan hamohang tarzda o'zlashtirishni;</p>	<p>-kursantlarning ona tilidan foydalanishi;</p>
--	---	--	--

			<p>-o‘zaro suhbat va muhokama jarayonida o‘zlariga bo‘lgan ishonch, jamoada ishlash, hamkorlikda ishlash hamda qobiliyatni baholay olish;</p> <p>-taqdimot jarayonida tildan foydalanishni va jamoa oldida axborot bera olish qobiliyatlarini sinovdan o‘tkazishadi.</p> <p>-kursantlarning madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini rivojlantirishda va ikki madaniyat haqidagi ma’lumotlarni til o‘rganish orqali o‘zlashtirish</p>	
--	--	--	---	--

			<p>hamda muloqot jarayonida yuz berishi mumkin bo'lgan muammo va qiyinchiliklarni oldini olishda yordam beradi.</p> <p>-Ushbu yondashuv kursantlarga yo'naltirilgan, chunki u kursantlarning qiziqishlari va ehtiyojlarini hisobga oladi.</p>	
7	jigsaw (Elliot Aronson)	<p>Jigsaw – ushbu metod kursantlar o'rtasidagi ochiq o'zaro muloqotni rivojlantirishga asoslangan faoliyat hisoblanadi. Kursantlarni rag'batlantiradigan haqiqiy o'quv</p>	<p>-kursantlar materiallarni taqdim etish o'rniga o'zlarini o'qitish imkoniyatiga ega. Texnika tushunish chuqurligini oshiradi. Har bir kursant buni o'z-o'zini o'qitishda</p>	<p>-guruhni tashkil qilish ko'p vaqt talab etadi. O'qituvchi turli xil intellektga ega bo'lgan kursantlarni birlashtirgan guruhlarni tuzishi kerak; -agar kursantlar o'z guruhiga</p>

		<p>resurslaridan foydalanadi.</p>	<p>qo'llagan, bu esa o'qituvchining o'rganishga yordam berishi mumkin bo'lgan eng qimmatli mahoratidir;</p> <p>-kursantlar ingliz tilidan ravonroq foydalanishadi;</p> <p>-har bir kursant katta guruh muhokamasida erishish qiyin bo'lgan munozaraga mazmunli hissa qo'shish imkoniyatiga ega;</p> <p>-har bir kursant o'z tajribasini rivojlantiradi va hissa qo'shadigan muhim narsaga ega;</p> <p>-har bir guruhdan individual</p>	<p>yetarlicha tez kirmasa yoki boshlang'ich matnlarini yetarlicha tez o'qib chiqmasa, vaqt tugaydi;</p> <p>-agar bir yoki ikkita o'jar kursant butun guruhda qatnashmasa, bir yoki ikkitasi matnning bir qismini yo'qotadi;</p> <p>-sinfdagi vaziyat shovqinli bo'lib qoladi, shuning uchun o'qituvchi kursantlarni nazorat qilishi kerak;</p> <p>-o'qituvchi bir vaqtning o'zida barcha guruhlarini nazorat qila olmaydi;</p>
--	--	-----------------------------------	--	--

			taqdimotdan so'ng keyingi savolni muhokama qilishni so'rash haqiqiy muhokamaga yordam beradi;	
8	task completion activities	Kursantlarni grammatikani yaxshi gapirishga, o'rganishga undaydigan samarali va malakali yondashuv. Vazifaga asoslangan til o'rganish sinfda o'qituvchilar kursantlarga tilni shaxsiylashtirilgan va mazmunli tarzda mashq qilishlari uchun raqobatlashadigan topshiriqlar beradi.	- vazifalar va topshiriqlarni bajarish uchun yuqori motivatsiyaga ega bo'lish; - guruhlarda birgalikda ishlashganda, bu ularni hamkorlikka undaydi; - ular guruhlarda ishlashda mazmunli o'zaro ta'sir o'tkazishga o'rganadilar; - kursantlarning oldingi bilimlari va tajribasiga e'tibor qaratiladi;	- vazifalarga va ma'noni yetkazishga juda ko'p urg'u beradi va bu tilni to'g'ri shaklda ishlatishga ta'sir qilishi mumkin; - muloqot ko'nikmalarini to'liq va muvaffaqiyatli rivojlantirish uchun vazifalarni bajarish yetarli emas; - to'g'ri bajarilmasa, ba'zi xavf-xatarlarga ega bo'lishi mumkin va bu til



		Vazifaga asoslangan o'quv sinfining asosiy e'tibori kursantlarning vazifani o'zi bajarishiga qaratilgan. Bu o'rganilayotgan tilni ochib beradi. Vazifa asosida til o'rganish kursantlarga o'zlarining foydali lug'at va til tuzilmalarini topishga yordam berish uchun amaliy topshiriqlardan foydalanadi.	- kursantlar o'rganayotgan tilning yangi xususiyatlarini o'rganishlari mumkin.	o'rganuvchilarning o'zaro tillarining o'sishi va o'zgarishiga ta'sir qilishi mumkin; - ba'zan til o'rganishda to'siqlarga olib kelishi mumkin.
9.	Tandem (discriminate d-tandem) metodi	Ushbu metodning asosiy maqsadi tili o'rganilayotgan mamlakat madaniyatini real yoki virtual muloqot	- o'qituvchi yo'l ko'rsatuvchi va yordamchi yoki o'qituvchi sifatida ishlaydi; - bu tilni mazmunli o'rganishga	- o'qitiladigan mavzular o'quvchilarning ehtiyojlari va qiziqishlariga mos kelishi kerak; -ikkala sherik ham

		<p>jarayonida ularning tilini o'zlashtirishdir, shuningdek, tandem hamkorlarning ikkalasi uchun ham birdek qiziqarli bo'lgan bilim hududida turli sohalardagi ma'lumotlarni qabul qilishdir. Discriminated-tandem esa bundan farqli o'laroq, maxsus sohaga yo'naltirilgan bilimlarni qabul qilishdir.</p>	<p>urg'u beradi; - ta'lim jarayonida yuqori ijtimoiylashuv va yuqori individuallashtirishni yaratishga yordam beradi; - sheriklarining motivatsiyasi va kommunikativ qobiliyatlar darajasini oshiradi, discriminated-tandem hamkorlari maqsadli tildan amalda foydalanish, o'z natijalarini, o'z-o'zini baholash va umuman, o'rganish muvaffaqiyati va unumdorligi dinamikasini kuzatish</p>	<p>teng motivatsiyaga ega bo'lishi kerak. Chunki agar bir kursant ikkinchisiga nisbatan kam harakat qilsa, u hamkoriga yetarlicha javob qaytara olmasa, ushbu metodning natijasi muvaffaqiyatli chiqmaydi; -ba'zan bu jarayon keskinlik, raqobat, umidsizlik, asabiylashish va hatto norozilik kabi salbiy his-tuyg'ularning paydo bo'lishi bilan tavsiflanadi.</p>
--	--	---	--	---

			<p>imkoniyatiga ega bo'ladilar;</p> <p>- noaniqlik tuyg'usini keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan xato qilishdan qo'rqish, uyatchanlik va boshqalar haqida o'ylashi kamaytiradi;</p> <p>- discriminated-tandemda mashq qilish yaxshi hazil tuyg'usini, o'rtacha hissiyotni va tajriba almashishga tayyorlikni anglatadi.</p>	
10.	information transfer (Palmer)	Yozma yoki og'zaki matnni boshqa shaklga qo'yish orqali tilni o'rganish va mashq qilish	Ma'lumot kursantlar tomonidan boshqa shaklga, masalan, diagramma,	-kursantlar matnni boshqa tashkil qilishni talab qilish orqali ularni tushunmasdan, shunchaki

		faoliyati.	panjara yoki rasm ko'rinishida qayta tashkil etish orqali ma'lumotni eslab qolish oson bo'ladi; - kursantning diqqatini – xabarga e'tibor qaratishga yordam beradi; - til rejimlari – har qanday til rejimlari uchun mo'ljallangan bo'lishi mumkin) Axborot uzatish jadvallari matn tuzilishini ajratib ko'rsatishi mumkin, bu o'quvchilarga amal qilishni osonlashtiradi. - matnning eng ko'p ma'lumot uchraydigan joylarini	parchalarni ko'chira olmaydi; - ko'p vaqt talab qiladi; - dominant kursantlarning mavjudligi, bu esa o'z fikrlarini erkin ifoda etishda qiyinchilik tug'diradi; - kursantlarning ona tilidan foydalanishi;
--	--	------------	--	---

			qisqartirish imkoniyati bo'ladi;	
--	--	--	--	--

Yuqorida keltirilgan zamonaviy kommunikativ metodlar va yondashuvlar ingliz tili darslarini tashkil etishda samarali, shuningdek, ularni dars jarayoniga tatbiq etish, ulardan mashg'ulotlarda unumli foydalanish kursantlarni darsga bo'lgan qiziqishlarini yanada ortishiga va o'rganilayotgan materialni to'liq o'zlashtirilishiga yordam beradi. Ammo, bu CLT yondashuviga kiruvchi ushbu zamonaviy metodlarning afzalliklari bilan bir qatorda kamchiliklari ham mavjud bo'lib, biz uni yuqorida imkon qadar yoritib berishga harakat qildik. Albatta, bu metodlarni qo'llash jarayonida o'qituvchi o'rganilayotgan materialga qay darajada mosligini inobatga olishi hamda metodga ozgina o'zgartirish kiritib talqin qilish orqali ham bu kabi muammolarga yechim topish mumkin. Bu esa pedagogdan katta mahorat va tajriba talab qiladi.

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, mahalliy tillar bilan muvaffaqiyatli muloqot qilish uchun xorijiy tillarni o'rganayotgan kursantdan ma'lum darajadagi bilimlarni talab qilishi, tilni faqatgina muloqot qilish vositasi sifatida o'rganmasdan, ular o'zaro muloqot qilishlari mumkin bo'lgan odamlarning fikrlash tarzini tushunish uchun foydalanishni taqozo etadi. Kursantlarda kommunikativlikni rivojlantirish uchun CLT (Communicative language teaching) yondashuvi asosidagi interaktiv metodlarni dars jarayoniga yanada ko'proq tatbiq etishimiz, ulardagi kommunikativ jarayondagi muommolarni oldini olishga tayyorlaydi.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Richards ,J.C. and T.S.Rodgers. Approaches and methods in language teaching. Cambridge: Cambridge University Press.2014.- P.37.
2. Nunan, David. "Communicative Tasks and the Language Curriculum". TESOL Quarterly.25 (2): 1991-01-01., - P.279–295.

3. Savignon, Sandra J. Communicative competence: theory and classroom practice: texts and contexts in second language learning. McGraw-Hill. [ISBN978-0-07-083736-2](#). [OCLC476481905](#), 1997-01-01., - P. 97-103.
4. Savignon, Sandra J. Communicative competence: theory and classroom practice: texts and contexts in second language learning. McGraw-Hill. [ISBN 978-0-07-083736-2](#). [OCLC 476481905](#). 1997., - P. 107-113.
5. Mitchell, Rosamond. Communicative Language Teaching in Practice. Great Britain: Centre for Information on Language Teaching and Research. [ISBN 978-0-948003-87-5](#). 1988. - P. 23–24, 64–68.
6. Richards, Jack; Rodgers, Theodore. Approaches and Methods in Language Teaching (3rd ed.). Cambridge: Cambridge University Press. [ISBN 978-1-107-67596-4](#). 2014. - P. 23–24, 84–85.
7. Sh.I.Musayeva Basics of teaching Foreign languages through intercultural communication competence in military educational institutions. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences. Vol. 7 No. 12, 2019 ISSN 2056-5852 Progressive Academic Publishing, UK. P. 1192-1196
8. Sh.I.Musayeva Oliy harbiy ta'lim muassasalarida kursantlarning madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini chet tili o'qitish orqali rivojlantirish metodikasini takomillashtirish. "Journal of new century innovations" in all areas international interdisciplinary research journal, Volume-3, Issue-2, aprel, 2022. P. 115-130.
9. Sh.I.Musayeva Developing of intercultural communication competence of the cadets using the "discriminated-tandem" method. In Volume 4, Issue 2 of Web of scientist: International scientific Research Journal (WoS) February 2023. – B. 617-623. ISSN: 2776-0979 SJIF 2023: 6.595 JIF: 7.565. P. 617-623
10. Sh.I.Musayeva "Kommunikativ yondashuv va interaktiv metodlar yordamida kursantlarning madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini rivojlantirish". Образование и наука в XXI веке. Научно-

образовательный электрон журнал. Выпуск №18 (2-том) апрель, 2023. В. 94-100.

11. Quvondiqov M.I., & Musayeva Sh.I. (2023) YANGI KONSTITUTSIYA-YANGI KELAJAK TAYANCHI. PEDAGOGS jurnali, 32(2), 142-145.

12. Musayeva, S. I. (2024). KURSANTLARNING MADANIYATLARARO MULOQOT KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHDA MULTIMEDIA VOSITALARINING O'RNI. *Ustozlar uchun*, 28(2), 98-103.

13. Qizi Ikanova, L. S. (2020). IMPROVING LISTENING SKILLS THROUGH ICT. *Scientific Bulletin of Namangan State University*, 2(11), 334-338.

14. Ikanova, L. (2019). THE IMPACT OF MATERIALS DEVELOPMENT, CRITICAL PEDAGOGY AND LGBT'S ISSUE ON THE LANGUAGE PLANNING AND POLICY. *SCIENCE. RESEARCH, DEVELOPMENT*, 59-62.

15. Иканова, Л. (2024, May). ОБРАЗОВАНИЕ В ТЮРЬМЕ: ФУНДАМЕНТАЛЬНОЕ ПРАВО И ВАЖНЫЙ ИНСТРУМЕНТ. In *Proceedings of International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences* (Vol. 3, No. 5, pp. 269-275).

16. Lazokat, I. (2022). Enhancing listening skills with the help of digital tools. *Thematics Journal of English Language Teaching*, 6(1).

17. Латипов, О. Ж. (2022). Интерпретация ихтиологической лексики в русском и узбекском языках. In *Сборник научных трудов Международной научнопрактической конференции. Ташкент-Екатеринбург* (pp. 65-67).

18. Латипов, О. Ж. (2022). КОННОТАЦИИ ВОКРУГ СЛОВА-ЗООНИМА "ВОЛК" В РУССКОМ, УЗБЕКСКОМ И ТАДЖИКСКОМ ЯЗЫКАХ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(Special Issue 26), 647-649.

19. Узакова, М. Х., & Латипов, О. Ж. (2019). ОЦЕНКА ФУНКЦИОНАЛЬНОЙ ГРАМОТНОСТИ ШКОЛЬНИКОВ НА ОСНОВЕ МЕЖДУНАРОДНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ PIRLS. *Вестник науки*.

20. Латипов, О. Ж. (2024). ҲАЙВОНОТ ОЛАМИНИНГ ИНСОН ҲАЁТИДАГИ ЎЗИГА ХОС ЖИҲАТЛАРИ ХУСУСИДА. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 43(5), 69-76.

21. Musayeva, S. I., & Mengliyeva, S. S. (2022). Kursantlarning madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini ingliz tilini o'qitish orqali rivojlantirish. *Инновационные исследования в науке*, 1(14), 144-148.

22. Ibrohimovna, M. S. (2019). TECHNIQUES OF IMPROVING SPEAKING IN ESP CLASSES FOR MILITARY. *CONDUCT OF MODERN SCIENCE-2019*, 139.